

## QURILISH ISHLARI

*2020-yil yanvar*

2020-yilning yanvar oyida Qashqadaryo viloyatida jami **385,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,2 %** ni tashkil etdi.


**Yirik qurilish tashkilotlari**




**Kichik korxona va mikrofirmalar**




**Norasmiy sektor**



**O'tgan yilning mos davriga nisbatan,  
% da**



**Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da**



● Yirik qurilish tashkilotlari  
● Kichik korxona va mikrofirmalar  
● Norasmiy sektor

2020-yil yanvar oyida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **21,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **11,1 %** punktga kamaygan.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga

nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **70,6** % i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **8,3** punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan **118,3** % ni tashkil qilgan holda **271,7** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,3** % punktga kamayib, **23,9** % ni tashkil etdi va **92,1** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **101,7** % ni tashkil etgani kuzatildi.

### Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **17,5** mlrd. so`m yoki 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan **96,6** % qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **367,6** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **100,4** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda **4,5** % va **95,5** % ni tashkil etdi.



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **77,3** % ni tashkil etib, **297,9** mld. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Shu jumladan, yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **10,7** mld. so'm qurilish ishlari bajarildi, yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,6** % ni tashkil etdi.

- Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **201,3** mld. so'm, yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,6** % ni tashkil etdi.

- Norasmiy sektor hissasiga **85,9** mld. so'm, yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,8** % ni tashkil qildi.

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

( 2020-yil yanvar )


(mlrd. so'm)

	<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>385,1</b>	<b>100,2</b>	<b>297,9</b>
shaharlar:			
Qarshi	116,7	110,5	90,2
Shahrisabz	19,4	87,0	15,0
tumanlar:			
G'uzor	19,0	113,2	14,7
Dehqonobod	9,9	104,6	7,7
Qamashi	10,2	128,6	7,9
Qarshi	42,6	111,5	33,0
Koson	27,3	49,9	21,1
Kitob	27,6	117,7	21,3
Mirishkor	9,5	100,4	7,4
Muborak	17,6	118,4	13,6
Nishon	5,4	104,0	4,2
Kasbi	14,2	104,5	11,0
Chiroqchi	28,6	98,3	22,1
Shahrisabz	12,4	123,4	9,6
Yakkabog'	24,7	104,4	19,1

## Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,0 %** ni yoki **6,3** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,1 %** punktga kamaydi.

(jamiga nisbatan, % da)




Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,4 %** punktga ko'payib, **68,6 %** ni yoki **214,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3 %** punktga kamayib, **92,1** mlrd. so'mni yoki **29,4 %** ni tashkil etdi.


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **18,4** % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **10,1** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **81,6** % ni tashkil etib, o'z navbatida o'tgan yildagi ko'rsatkich bilan solishtirganda **10,1** % punktga ko'paydi.

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **15,4** % punktga kamaydi va **23,5** % ni tashkil etdi. Qolgan **76,5** % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **15,4** % punktga ko'paydi.

(jamiga nisbatan, % da)




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fugorolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>385,1</b>	<b>312,7</b>	<b>38,3</b>	<b>34,1</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	116,7	94,7	11,7	10,3
Shahrisabz	19,4	15,7	2,0	1,7
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	19,0	15,4	1,9	1,7
Dehqonobod	9,9	8,1	1,0	0,8
Qamashi	10,2	8,3	1,0	0,9
Qarshi	42,6	34,6	4,2	3,8
Koson	27,3	22,2	2,7	2,4
Kitob	27,6	22,4	2,8	2,4
Mirishkor	9,5	7,7	0,9	0,9
Muborak	17,6	14,3	1,7	1,6
Nishon	5,4	4,4	0,5	0,5
Kasbi	14,2	11,5	1,4	1,3
Chiroqchi	28,6	23,2	2,8	2,6
Shahrisabz	12,4	10,1	1,2	1,1
Yakkabog'	24,7	20,1	2,5	2,1

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'ati

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



### Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

#### Qamashi tumani (128,6 %):

- "LADA" avtosalonining qurilishi;
- Gipsokarton ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar obyektlarning qurilishi.

#### Shahrisabz tumani (123,4 %):

- Dekorativ panellar ishlab chiqaradigan korxonaning qurilishi ;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar obyektlarning qurilishi;

### **Muborak tumani (118,4 %):**

- Muborak tumanida madaniyat saroyining qurilishi;
- Terini qayta ishlash zavodi qurilishi;
- Arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi.

### **Kitob tumani (117,7 %):**

- Mevani saqlash uchunsovutgich qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan ko'p qavatli noturar obyektlarining qurilishi;
- Tegirmon va omuxta yem uskunalarini ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;

### **G'uzor tumani (113,2 %):**


- Tumanda o'quv markazi qurilishi;
- Blok g'isht ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;

### **Qarshi sh (110,5 %):**

- Ma'muriy bino va davlat xizmatlari markazi binolarining qurilishi;
- Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining qurilishi;
- Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'p qavatli va ko'p xonardonli turar joylarning qurilishi;
- Uch qavatli "Umumiy ovqatlanish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish" binosining qurilishi;

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **70,6** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Dehqonobod hamda Mirishkor tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **23,9** % i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektoring yuqori ulushi Dehqonobod (**69,0** %) hamda Mirishkor (**65,0** %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

A. Isayev  
(75) 221-32-47